

“MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA “EZGULIK” KONSEPTI BILAN BOG’LIQ TUSHUNCHALAR TAHLILI

Gulrux Rustamovna BEKBOYEVA

Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7810222>

Annotatsiya. “Mahbub ul-qulub” Alisher Navoiyning umri so‘nggida yaratgan yirik nasriy asaridir. “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) shoirning hayotdan olgan tajribalariga, taassurotlariga, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlariga yakun yasab, turli ijtimoiy guruh, tabaqalarni tasnif va ta’rif etadi, ularning burchi va vazifalarini yoritib beradi. Bu guruh va tabaqalarga ta’rif berar ekan, ba’zilarning faoliyatini, xulq-atvoridagi illat va kamchiliklarni fosh etadi. O‘z oldiga Navoiy bu tabaqa va guruhlarini ezgulikka yo‘llashni maqsad qilib qo‘yadi. Navoiyning maqsadiga ko‘ra bu asar ijtimoiy-axloqiy masalalar va odob-axloq bo‘yicha bir dasturamal bo‘lishi, hayotni tuzatishga yordam bermog‘i lozim edi.

Kalit so‘zlar. Ezgulik, yovuzlik, izzat, tavba, zuhd, tavakkal, sabr, rizo.

“Alisher Navoiy asarlarining mazmum-mohiyatini tezda anglab yetishning bir qator murakkabliklari bor. Ulardagi ayrim bayt, hikoyat, obraz yoki timsollarning asosiy ma’nosini to‘g‘ri tushunish chuqur tafakkur, keng qamrovli bilimni talab qiladi. Shoir asarlarini teranroq his qilishi uchun tariqat odobi, tasavvuf mohiyati, islom, odob-axloq, sufiylar hayoti, shaxsiyati bilan bog‘liq jihatlardan oz bo‘lsada xabardor bo‘lishi kerak”¹.

O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Navoiy donishmand inson sifatida o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarini yaratar ekan, asosiy diqqat-e’tiborini komil inson masalasiga qaratadi va shu asarida komil inson qanday bo‘lishi kerakligi haqida, uning zohiriy va botiniy xususiyatlari haqida javob berishcha harakat qiladi. Zero, bobomizning bu asari bugungi kunning barcha savollariga javob beradi. Bu asar tom ma’noda ijtimoiy falsafiy va axloqiy g‘oyalarga to‘liq bo‘lib, XV asrda mavjud bo‘lgan barcha ijtimoiy toifalar mohiyatini ochib beradi, ijtimoiy va axloqiy hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi, yaxlitligini ishonarli ta’kidlaydi.

Navoiy juda murakkab hayot yo‘lini bosib o‘tdi. “Insonning baxt-saodati uchun, el-yurtning osoyishtaligi va farovonligi uchun, madaniyat va ma’rifatning taraqqiysi uchun hormay-tolmay kurash olib borgan Navoiy ba’zan o‘z orzu-intilishlariga erishda, ba’zan turli-tuman to‘siqlarga, ziddiyatlarga duch kelib alam va kulfat chekdi, muhitning muammo va qarshiliklari bilan birga yashadi, bu muammo va qarama-qarshiliklardan ayrimlarining mohiyati va sabablarini tushundi, ayrimlari oldida ojiz bo‘lib qoldi”².

Navoiy o‘z hayotida ko‘rgan, kechirgan yaxshi va yomon kunlari haqida asar muqaddimasida shunday yozadi:

“Gohe topdim falakdin notavonlig‘,

Gohe ko‘rdim zamondin kamronlig‘.

¹ Xo‘ja T.R. Navoiyni anglash yo‘lida. “Til va adabiyot ta’lim” jurnali. 2002 yil, 5-son, 15-bet.

² Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1965. – B. 580.

Base issig'-sovug' ko'rdim zamonde,

*Base achchig'-chuchuk tottim jahonda*³

Navoiy murakkab hayoti davomida o'z qarashlarini olg'a surish uchun ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. O'z hayotida to'plagan boy tajribalarini o'zgalarga nasihat tarzida yozib qoldirdi. "Mahbub ul-qulub" Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutudg'u bilig", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Ro'shnoyinoma", Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarlariga monand bir nasihat, pandlardan iborat asar.

Navoiy sermashaqqat hayoti va kurashi yo'lini ta'riflab, bu asarni yozishining sababi va maqsadini ta'kidlab shunday deydi: "...bolalikdan to qarilikka qadar ko'hna davron voqealaridan aylanuvchi osmon hodisalaridan, fitna qo'zg'ovchi dunyo buqalamunligidan – tovlamachiligidan zamonaning rang singari gunogunlig'idan ko'p vaqt va uzoq muddat har xil hayot va taraddudlar bilan daydib yurdim, har tovr va ravishda bo'ldim va turli yo'llarga kirdim, yaxshi – yomonning xizmatini qildim, katta-kichikning suhbatida bo'ldim, goh xorlik va qiyinchilik vayronasida nola qildim, goho izzat va ma'murlik bo'stonida majlis qurdim". Yo'qsullik va kambag'allik paytlarida, falokatli zamonlarda va noumid yurgan paytlarimda ba'zan ilm-fan madrasalaridan quyi saflardan joy oldim va olimlar majlisida ilm nuridan ko'nglimni yoritdim.. davlat ishi bilan mashg'ul bo'lgan amaldorlik chog'larimda ko'ngil mulkini turli odamlarning hujumi bulg'aladi. Goh amirlik o'rnida o'tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini so'rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qaragan elga muruvvat ko'rsatdim... Maqsadim shuki har yilda yurdim, olamda bo'lmish har nav' odam bilan ko'rishdim, katta-kichikning fe'lu atvorini o'rgandim, yaxshi-yomonning xislatlarini tajribadan o'tkazdim, ezgulik va yomonliklarning sharbatini ichib, zahrini totib ko'rdim. Baxil va pastkashlarning zaxmini, saxovatli kishilarning malhamini ko'nglim darhol ozadigan bo'lib qoldi. Zamon ahlidan ba'zi hamsuhbatlarim va davron kishilaridan ayrim do'stlarim bu hollardan xabarsiz hamda ko'ngullari bu ezgulik va yomonliklardan asarsizdir... Shu jihatdan, hamsuhbatlarni va do'st-yoronlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko'rindiki, toki ularda ham har toifaning xislati haqida bilimlar va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalari bo'lgan.⁴

Asarning qadimgi qo'lyozma nusxalari kam bo'lib, ilm-fanga ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalaridan uchtasi XVI asrga, qolganlari XVIII-XIX asrga tegishli. 1565-66 yillarda ko'chirilgan nusxa Parij Milliy kutubxonasida, XV asrda ko'chirilgan mukammal nusxasi Sank-Peterburgda 1595-96 yillarda ko'chirilgan nusxasi Sank-Peterburgda Saltikov-Shedrin nomidagi Davlat kutubxonasida saqlanadi. Buxoroda, Istambulda, 1939 yilda Toshkentda nashr qilinadi. 1948 yilda A.Kononov tomonidan tayyorlangan "Mahbub ul-qulub"ning chog'ishtirma matni arab yozuvida bosib chiqarilgan. 1983 yilda "G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at" nashriyotida Inoyat Maxsumov tomonidan nasriy bayon etilgan. "Mahbub ul-qulub" mashhur navoiyshunoslik olimi Suyimo G'anieva so'zboshisi bilan nashrdan chiqariladi.

³ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1983. – B. 11.

⁴ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, 1983. – B. 3.

Navoiy o'z asarida inson haqida qayg'uradi. Uning dardlariga darmon topmoq ilinjida azob chekadi, insoniylikka yarashqlik fazilatlarini madh etadi, unga zid bo'lgan illatlarni nafrat bilan ta'rif etadi. Insonparvarlik, xalqparvarlik bu asarning bosh g'oyasini belgilaydi.

“Mahbub ul-qulub”da Navoiy bevosita o'z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga ta'rif va tavsiya berar ekan ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligini boshqa asarlariga qaraganda kengroq chuqurroq va aniqroq bayon etadi. Shoir o'z davrining farzandi sifatida fikr yuritadi. Riyokor shayxu “karomatlari hiyla va nayrangdan iborat din arboblarni ayovsiz tanqid qiladi, tavba, zuhd, tavakkal, sabr, rizo kabi tshunchalarga to'xtalib, bu xususda ba'zi pandu nasihatlar beradi.

“Mahbub ul-qulub” unda qo'yilgan masalalar xarakteriga qarab 3 qismga bo'linadi. Asarning birinchi qismi “Xaloyiq ahvoli va af'oli va ahvolining kayfiyati”, ya'ni kishilarning ahvoli, fe'l-atvori va gap-so'zlarining ahamiyati haqida bo'lib, qirq fasldan iborat. Bu qismda feodal jamiyatdagi turli tabaqalarning jamiyatda tutgan o'rni va vazifasi haqida, o'z burchiga, to'g'ri halol munosabatda bo'lish kerakligi haqida so'z yuritiladi.

References:

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. MAT.20 tomlik. 16-tom. T.: “Fan” nashriyoti, 1998-yil. 162 bet.
2. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. 23-bet.
3. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub” (O'zbekcha tadbil so'zboshi muallifi: G'aniyeva S.) Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983. 152 bet.
4. Porso Shamsiyev. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati. I va II qism. Toshkent: 1982.
5. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. (Tabdil qiluvchi: Rahmonov V.) “Til va adabiyot ta'limi” jurnali 2014. 3-4-sonlar. 34-39-betlar.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. 4-5-jild. Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2008.
7. Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. II, III qismlar.
8. Bafojev B. Navoiy asarlari leksikasi. T., “Fan”, 1983, 19-b.
9. Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug'ati. Toshkent: 1993. 428 bet.
10. Hayitmetov A. “Adabiy merosimiz ufqlari”. Toshkent, 1997. 236 bet.